

natijasida o'ldirilgan hayvon suyaklarini yoqib yuborgan bo'lsa, Teshiktosh aholisi suyaklardan foydalangan[9.B:150]. Teshiktoshdan suyakdan yasalgan mehnat qurollari ham topilgan.

Teshiktosh g'orining madaniy qatlamlaridan 2228 (3 mingdan ortiq, *O'zbekiston tarixi xrestomatiya 1 jild. Fan nashriyoti Toshkent 2014 y. 25 bet*) ta tosh buyumlar topib o'rganilgan. Teshiktoshda yirik uchli nayzasimon ish qurollar mavjud emas. P.P.Yefimenko muste davriga oid ikkita eng mashxur qurol- nayza va qirg'ichni taqqoslab quyidagi fikrga kelgan: uchli nayza ko'proq "erkaklar pichog'i" qirg'ich esa ko'proq "ayollar pichog'i"ga yaqin bo'lgan. Nayza bilan erkaklar bemaol hayvonlarni ovlagan bo'lsa, qirg'ich bilan esa ayollar uy xo'jaligida foydalangan[10. B:3-5].

Xulosa o'rnida shu narsani alohida takidlash lozimki, ibtidoiy odamlarning bilim darajasi ancha cheklangan bo'lsada, biroq yashash uchun kurash jarayonida atrof-muhitni kuzatib tajriba to'plaganlar. Dastlab ibtidoiy

odamlar ehtiyojini qondirish maqsadida oziq-ovqat qidirib o'zi yashayotgan atrof muhitni yahshiroq o'rgana boshladilar. Bu esa ularning geografik bilimini oshirgan. Tabitdagi mavjud bo'lgan istemolga yaroqli o'simlik va mevalarni qidirib topishi, kuzatishi natijasida botanik bilimlarini to'plagan. Yovvoyi hayvonlar ovlash jarayonida hayvonlarning fe'li, turi, yashash joylarini kuzatish tufayli ibtidoiy odamlarda zoologik bilimi shakllana boshladi. Sovuq iqlimning vujudga kelishi natijasida fizik - astronomik bilimlar shakllana borgan. Qorong'ulikning mavjud bo'lishi oqibatida qo'rquv hissining yanada oshib borishi natijasida diniy qarashlarning vujudga kelishi sodir bo'ldi. Ovchilik mahsulotlari va termachilikdagi mahsulotlarning taqsimlanishi natijasida matematik bilimlarning oshib borishi va bu jarayonlarni o'rganish ibtidoiy odamlar uchun zaruriy, hayot uchun kurash, tirikchilik manbai edi.

Albatta inson tafakkuri cheklanmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Борисковский П.И. Древнейшее прошлое человечества. Москва, 1980. -С. 19-173
2. Annayev J.T. Jahon arxeologiyasi (o'quv qo'llanma) Toshkent.: "Innovatsiyon-Ziyo". 2020. 18 bet.
3. Молева Н.В. Каменный век в археологии (Учебно-методическое пособие). Нижний Новгород. 2009. ст №17.
4. Ibragimov R.Z. Markaziy Osiyo arxeologiyasi. Toshkent 2013. 7-bet
5. Egamberdiyeva N.A. Arxeologiya (o'quv qo'llanma). Toshkent.: 2011. 17-18 bet.
6. Asqarov A. O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi. Monografiya. Toshkent.: 2019. 76,1-bet
7. Jo'raqulov M.J O'rta Osiyo arxeologiyasi Toshkent.: 1997. 38-bet
8. Ражабов А.Ю, Махкамова Н.А. Жанубий Ўзбекистоннинг қадимги тош даври археология ёдгорликларини ўрганилиш тарихи // Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммолари ёш тадқиқотчилар талқинида ЎЗР ФА Археология институтида 2013-йил 27-28 мартда ўтказилган ёш олимлар Республика конференцияси материаллари 17-бет.
9. Борисковский П.И. Древнейшее прошлое человечества. Ленинград.: 1979. -С. 150.
10. Omonov V.Teshiktosh odami. // Fan va turmush 2008. 3,4,5,50-bet.

O'ZBEKISTONDA YOSHLARNING MA'NAVIY YUKSALISHDA MAHALLA TIZIMINING O'RNI

Sanginova Iroda Nematullayevna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tayanch doktoranti.

i.sanginova@dtpi.uz

Anotatsiya: Bizga ma'lumki yosh avlod boshlang'ich tarbiyani oilada, mahallada oladi.

Mahallalarda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, milliy xalq o'yinlari va

sport turlarini yoshlar orasida ommalashtirish, “Besh muhim tashabbus” loyihalari, yoshlar festivallari va boshqa madaniy-ma’rifiy tadbirlarni amalga oshirish bu yoshlarni ham jismonan ham manan yetuk barkamol kadr bo‘lib shakllanishlariga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: Milliy o‘zlik, madaniyat, ma’naviyat, ta’lim tarbiya, inson komoloti, vatan ravnaqi, taraqqiyot, inson ravnaqi, ma’rifat.

Аннотация: Как известно, молодое поколение получает начальное образование в семье и соседстве. Содержательная организация досуга молодежи в микрорайонах, популяризация среди молодежи национальных народных игр и спорта, реализация проектов «Пять важных инициатив», молодежных фестивалей и других культурно-просветительских мероприятий сделают этих молодых людей физически и морально зрелыми и здоровыми. -округлый состав помогает им формироваться.

Ключевые слова: национальное самосознание, культура, духовность, образование, воспитание, человеческий труд, развитие родины, прогресс, развитие человека, просвещение.

Abstract: As we know, the young generation receives primary education in the family and neighborhood. Meaningful organization of free time of young people in neighborhoods, popularization of national folk games and sports among young people, implementation of "Five Important Initiatives" projects, youth festivals and other cultural and educational events will make these young people both physically and mentally mature and well-rounded staff. helps them to form.

Keywords: national identity, culture, spirituality, educational upbringing, human komolot, prosperity of the motherland, progress, human prosperity, enlightenment.

Bugungi kunda mamlakatimizda, yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ularda milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usini mustahkamlash, milliy g‘oyani keng targ‘ib etish borasida keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Zero, mahallalarda olib borilayotgan ma’naviy yuksalishga xizmat qilayotgan islohotlar

navqiron avlodni ulug‘ ajdodlarimiz xotirasi bilan haqli ravishda faxrlanish, tinchlik, osoyishtalik hamda obodlik uchun kurashish, mustaqillikni qadrlash va Vatanni ardoqlab yashashga undashi bilan yanada ahamiyatlidir. [3]

Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ularning intellektual jihatdan kamol topishini va ma’naviy rivojlantirishga ko‘maklashish maqsadida mahallalarda yoshlar yetakchisi lavozimi ta’sis etildi. Yetakchilar o‘ziga birlashtirilgan mahallalarda faoliyatini quyidagi asosiy yo‘nalishlarda amalga oshiradi:[5]

-madaniyat va san’atni targ‘ib qilish borasida – “San’at g‘unchalari” ko‘rik-tanlovi, maqom, baxshichilik va estrada bo‘yicha “Yoshlar ovozi”, “Yosh musavvirlar” tanlovlari hamda “Kamalak yulduzlari” bolalar ijodiyot festivalini o‘tkazib kelmoqdala, shuningdek, yoshlar va bolalar teatr jamoalarini tashkil etmoqdalar.

-sog‘lom turmush tarzi va sportni ommalashtirish borasida – futbol, voleybol, basketbol, stol tennisi, velosport, yugurish, shaxmat, shashka, badminton, kamondan otish bo‘yicha musobaqalarni tashkil etib, salomatlik uchun 5 000 qadam yurish marafoni hamda “Yosh ekolog” aksiyasini o‘tkazmoqdalar.

-axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni tashkil qilish borasida – “Bir million dasturchi”, “Dasturlashga birinchi qadam” loyihalarini amalga oshirib, kibersport chempionati va “Axborot texnologiyalari bilimdoni” tanlovini o‘tkazib kelmoqdalar;

-ma’naviyat va kitobxonlikni targ‘ib qilish borasida – “Zakovat” musobaqasi, “Quvnoqlar va zukkolar”, “Zukko kitobxon”, “Yosh kitobxon”, “Yosh kitobxon oila”, “Xorijiy tillar bilimdoni” tanlovlari hamda “Munozara” intellektual va milliy xalq o‘yinlarini tashkil etib tanlovlarda o‘quvchi yoshlar, talaba yoshlarning faol ishtirokini nazorat qilib kelmoqdalar.

-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va huquqiy savodxonlikni oshirish borasida – “Yosh chegarachi”, “Yosh qutqaruvchi”, “Quvnoq startlar”, “Temurbeklar”, “To‘maris malikalari”, “Shunqorlar”, “Yosh huquqshunos”, “Yosh saylovchi”, “Yosh

deputat” tanlovlari hamda “Men ham askar bo’laman” aksiyalari va harbiy qismlarga sayohatlarni tashkil etib nazorat qilib kelmoqdalar.

-tadbirkorlik g’oyalarini qo’llab-quvvatlash borasida – “O’zbekiston uchun 100 g’oya” va “Mahallaning ishbilarmon tadbirkori” tanlovlari, “Biznesga birinchi qadam” grant loyihasi hamda muvaffaqiyatga erishgan tadbirkorlar bilan uchrashuvlarni tashkil etib, yoshlarni tadbirkorlar hamda ishbilarmonlar bilan uchrashtirib yoshlarni hayotda o’z o’rnini topishga hamda ona vatanga vatanparvarlik ruhida tarbiyalab kelmoqdalar.[5]

Tadqiqot olib borish jarayonida ilmiy muammoga sivilizatsion yondashuv asosida tarixiy-qiyosiy, muammoli-xronologik, obyektivlik, tizimli tahlil, manbaviy, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xolislik, og’zaki so’rov kabi usullar yordamida Yangi O’zbekistonda yosh avlod ma’naviy kamoloti va ma’rifiy yuksalishda mahalla tizimining o’rni benihoyat yuqori o’rinda turishiga oid birlamchi hujjatlar tahliliga tayangan xolda atroflicha tadqiq etildi.

Mahallada norasmiy ijtimoiy aloqalar tizimi tarkib topgandir. Agar biron to’y bo’lsa, oqsoqolning biror og’iz gapi bilan barcha qo’ni-qo’shilar xizmatda bo’ladi. Kim choy qaynatadi, kim masalliq olib keladi. [3] Xotin-qizlar ham barchasi xizmatda bo’ladi. Ma’raka ham xuddi shunday, bir og’iz gap-so’zsiz ijro etiladi. Hamma mahalla sha’nini saqlashga harakat qiladi. Bu yerda jamoa va oqsoqollar fikriga bo’ysunish tamoiili ustuvordir. Bu narsa sharqona ruxiyatga mosdir. Shu sababli xalqimiz orasida “Mahallang otang –onang”, “Bir bolaga yetti mahalla ota–ona” iboralari paydo bo’lgan bo’lib, kishilarning eng, hursanchilik va og’ir kunlarida ham mahalla insonlarning kuniga yaraydi, yordam ko’rsatadi, kishilarning ko’nglini ko’taradi.[1] Bundan ko’rinib turibdiki mahallalardagi bu ajoyib urf odatlar ham ajoyib qadriyat hisoblanadi. Biz farzandlarimizga bu urf odatlarni hurmat qilib, har bir tadbirlarda ishtirolk etib anana va qadriyatlarga munosib farzand bo’lishlari lozimligini bolalik chog’laridan tushuntirib borish lozim. Yuqorida keltirilgan iboralarning mazmun mohiyati naqadar chuqur bo’lib tarix sinovlaridan o’tgan. Shuning uchun xalqimiz

orasida hamon yangi mazmun bilan yashab kelmoqda Ayni paytda mahalla ko’pchilik uchun ma’naviyat muhit hisoblanadi.[2] Agar mahallada ma’naviy muhit yomon bo’lsa, u yerda turli bezorilar, jinoyatchilar, noqonuniy ishlar bilan shug’ullanuvchilar ko’payadi. Agar ma’naviy muhit yaxshi bo’lsa, buning teskarisi bo’ladi, ya’ni ilimli, iymonli, mehnatkash insonlar ko’payadi. Shu sababli ma’naviy muhit shaxsning ham, butun avlodni ham muayan yo’nalishda shakillantiradi, tarbiyalaydi, ijobiy hislatlarni yuzaga chiqaradi, ularning yomon ta’sirlardan himoya qiladi. Ma’naviy muhit har qanday yutuq va kashfiyotlarnig (chetdan qabul qilingan yangi qadriyatlarining ham) taqdirini belgilaydi: rivojlantiradi, yo unutilishiga mahkum etadi yoki deformatsiya qilib, o’ziga moslashtiradi.[8]

Hozirda mahalla raisining uchta yo’nalishdagi - huquqiy masalalar, oila va xotin-qizlar masalalari hamda ekologiya-obodonlashtirish bo’yicha o’rinbosarlari tizimi ishlarni olib bormoqda.[3] Avval uchta mahalla osoyishtaligi uchun bir nafar profilaktika inspektori mas’ul edi. Endilikda har bir mahallaning profilaktika inspektori hamda uning yordamchisi mavjud. Bunday o’zgarish hamda ichki ishlar organlari o’rtasida o’rnatilgan hamkorlik mahallalarda jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlikka qarshi kurashishda o’z samarasini berayotir. Bundan tashqari mahalla boshqaruv shakli haqida gapirganda O’zbekistonda mahalladagi fuqarolarning yashash sharoitlarini yaxshilashga yordam berish va kambag’allikdan aholini chiqarish maqsadida hokim yordamchilari lavozimi tasis etilishi haqida to’xtalib o’tish joiz deb o’ylaymiz. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrdagi “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag’allikni qisqartirish bo’yicha davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlari to’g’risida”gi PF-29-son Farmoniga muvofiq hokim yordamchilarining vazifalari belgilab qo’yildi.

Ma’naviy muhit – jamiyatning hissiy, aqliy va jismoniy kamolot borasida erishgan o’rtacha saviyasi asosida vujudga kelgan talablari va ularning amalga oshirish tartibi. Muhit odatda, barqarorlikka bir tekislik va bir hillikka intiladi, uning talablari va ta’siri

hammaga birdek – o‘rtacha bo‘ladi.[4] Uning talablariga javob berish uchun kimlardir o‘zini tarbiyalaydi, takomillashadi, o‘sadi va hokazo. Kimlar uchundir umumiy ma‘naviy muhitning talablari kamlik qiladi. Bunda shaxslar yoki ijodiy guruhlarining imkoniyatlari to‘liq yuzaga chiqmasdan qolish xavfi tug‘iladi. Shu boisdan umumiy ma‘naviy muhit doirasiga nisbatan xoslashgan tabaqaviy, kasbiy-professional yoki guruhiy muhitlar-submuhit mavjud. Submuhitlar ozaro biroz farq qiladi. Farq muayyan ijtimoiy guruh, tabaqa va sinflarning psixologiyasi va siyosiy mavqei, intilishlari ta‘sirida vujudga keladi. Ammo bu farqlar ortiqcha baholanmasligi va ma‘naviyatga bolshevikchasiga mutloqlashtirilgan sinfiylir nuqtai nazaridan yondashish uchun asos bo‘lmasligi kerak. Submuhit umum muhitdan ajralib keta olmaydi va pirovardida uning talablariga bo‘ysunishga majbur bo‘ladi. Har bir yosh avlodning ma‘naviy yetuk, komil shaxs bo‘lib voyaga yetishida musaffo havo, tabiat bilan birgalikda mahalla va oila muhiti juda katta ro‘l o‘naydi. Demak, mahalla kishilarning tarixan shakllangan birlashib kelayotgan birga yashab faoliyat ko‘rsatadigan makoni hisoblanad[3]. U o‘zbek xalqining turmush tarzi, ruxiyati, ijtimoiy hayotining o‘ziga xos xususiyatlarini aks etiruvchi, milliy ananalarni, urf odatlari axloqiy ma‘naviy qadiryatlarini avloddan-avlodga yetkazuvchi muqaddas maskan bo‘lib kelgan. Mahalla insonlarining millati, yoshi, jinsi, dini, irqi tili, e‘tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar ularni ezgulik yo‘lida jipslashtiruvchi va birlashtiruvchi katta oila hisoblanadi. Bu oila insonlarning bir-biriga bo‘lgan o‘zaro hurmati, muhabbati, mustahkam do‘stligi asosida yashaydi faoliyat ko‘rsatadi.[6] Oila va mahalla har tomonlama bir-birlari bilan bog‘liq. Zotan mahalla oilalardan tashkil topadi. Farzandlar oila bag‘rida kamol topgani kabi, oila ham mahalla ichida ravnaq topadi, nurli kelajak sari intiladi. Kerak bo‘lsa, mahalla oilaning eng yaqin maslahatchisi, tog‘day tayanchidir. Sharq xalqlari chunonchi o‘zbek xalqi shu narsani biladi, teran ma‘no mazmunini yaxshi tushunadi.[9] Darhaqiqat, Sharq xalqlari uchun eng muhim xususiyatlaridan biri bu barchamizni quvnatadigan xursandchilik kunlari ham boshga ish tushgan onlarda ham bir-

biriga hamdard va hamnafas bo‘lishdir. Insonlar o‘rtasidagi bunday bog‘liqlik va hamjihatlikning muhim vositasi–mahalladir. Zotan, to‘p –to‘p bo‘lib mahalla–mahalla bo‘lib kun kechirganda yashash uchun turli qulayliklar vujudga kelgan, odamlararo muhim munosabatlar, muomala yo‘sinlari-shakillangan.[7]

Yangi O‘zbekistonda turmush madaniyatini yuksaltirish va juda ko‘plab muammolarning hal etilishida tarixiy vazifani bajargan mahalla –halqning halq bo‘lib maydonga chiqishiga eng birinchi omillardan bo‘ldi, desak sira yanglishmagan bo‘lamiz halla birlashtiruvchi kuch bo‘lib, Vatanning bir bo‘lagi hisoblanadi. Mahallada yutuqlar, kam ko‘stlar ham qo‘ni –qo‘shnilarga ma‘lum. Odamlarning bir –birlarini yaxshi bilishlari natijasida o‘rtada mehr –oqibat paydo bo‘ladi.

Oqibatning boshi andishalikda. Bularning barchasi xalqimizni ma‘naviy jixatdan yuksaltirgan, uni madaniyatli xalqlar qatoriga ko‘targan eng qimmatli milliy belgilardandir. Mahallani tinchlik va osoyishtalik qo‘rg‘oni, deyish ham mumkin. Afsuski bizda mahallalar tarixi kam o‘rganiladi. Aslida, millat tarixini o‘rganish mahallalar tarixini o‘rganishdan boshlanadi.[8]

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki O‘zbekiston mustaqillika erishgan ilk kunlaridanoq yosh avlod ma‘naviy kamoloti va ma‘rifiy yuksalish ularning ham manan jismonan kamolga yetishlari uchun qanchadan qancha keng imkoniyatlar yaratib bermoqda. Maktablarda, Oliy ta‘lim muassalarida o‘quvchi hamda talaba yoshlarni zamonaviy texnologiyalar asosida bilim olib ta‘limda yuqori cho‘qilarga erishishayotganlari ham so‘zimizning isbotidir. Har bir ota ona farzand dunyoga kelishi bilan ona vatanga sadoqatli komil fozil dono qilib tarbiyalashga harakat qilmog‘i lozim. Zero yuqorida takidlab o‘tganimizdek bola boshlang‘ich tarbiyani ota onadan undan so‘ng maktabgacha ta‘lim dargohidan, maktabdan xullas mahalla boshlang‘ich ta‘lim-tarbiya o‘chog‘idir.

Mahalla Sharq xalqlari uchun muhim qadriyat bo‘lib uning sha‘ni, gullab yashnashi taraqqiyoti uchun butun kuch-va qudratini sarf etadigan ma‘rifatparvar kelajak avlodni tarbiyalaydigan makondir. Yangi O‘zbekiston farzandlari albatta buyuk bobokalonlarning ijod

faoliyatlariga ularning sharqona fazilat va urf odat ananalariga marosimlariga munosib

farzand bo'lib kamolga yetmoqlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Milliy tarrafiyot yo'limizni qattiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz". T.: - "O'zbekiston".
2. Mirziyoyev Sh.M "Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga qurishimiz kerak". T.: - "O'zbekiston" 2017.
3. Sanginova I.N "Yangi O'zbekistonda mahalla ko'rki". Eurasian journal of law Finance and Applied Scienges. Page. 66-70. 2022.
4. Sanginova I.N. "Mahallalarning ijtimoiy ma'naviy hayotdagi o'rni". Surxondaryo ilm va tafakkur. 2023. N-1 son 35-39 betlar.
5. Tursunov S.N. Jo'rayev B. "Mahalla-Mustaqil yurt tayanchi". Toshkent 2012-yil.
6. Tursunov S.N. "O'zbek mahallalari ma'naviyatimiz iftixori-g'ururiga aylansin". Toshkent. "Yangi nashr" 2018-yil. 275-278.
7. Tursunov S.N va boshqalar. Surxondaryo tarixi - Toshkent: Sharq. 2004-yil. 610-bet.
8. Jalilov Sh. "Mahalla yangilanish davrida. -Toshkent: Mehnat, 1995-yil 72-75 bet.
9. www.mahalla.intal.uz.

УРБАНИЗАЦИОН ЖАРАЁНЛАРНИНГ ШАҲАР АҲОЛИСИ КУНДАЛИК-МАИШИЙ ҲАЁТИГА ТАЪСИРИ

Чориев Жамшид Шокиржонович,
Термиз давлат университети эркин тадқиқотчиси

Аннотация: Жаҳон миқёсида урбанизация ва шаҳарлашув жараёни шиддат билан ривожланиб бораётган бугунги кунда шаҳарлар тарихини теран ёритишга қаратилган илмий изланишларга эҳтиёж тобора ортмоқда. Шу сабабли ҳам жаҳондаги етакчи илмий-тадқиқот марказларида ер шарининг турли минтақаларида урбанизация жараёнларининг ўзига хос жиҳатларини, шаҳарсозлик маданиятининг пайдо бўлиши ва ривожланиш қонуниятларини ўрганиш бўйича тизимли илмий изланишлар олиб борилмоқда.

Калит сўзлар: урбанизация, тоза ичимлик суви, транспорт, электр энергия, қурилиш ишлари, сартарошхона, ошхона, тикувчилик цехи, ҳаммом.

Аннотация: Сегодня, когда процесс урбанизации и урбанизации стремительно развивается в мировом масштабе, возрастает потребность в научных исследованиях, направленных на более глубокое освещение истории городов. По этой причине в ведущих научно-исследовательских центрах мира

проводятся систематические научные исследования по изучению конкретных аспектов процессов урбанизации, становления культуры городского планирования и условий развития в различных регионах земного шара.

Ключевые слова: урбанизация, чистая питьевая вода, транспорт, электричество, строительные работы, парикмахерская, кухня, швейный цех, санузел.

Abstract: Today, when the process of urbanization and urbanization is rapidly developing on a global scale, there is an increasing demand for scientific research aimed at in-depth coverage of the history of cities. For this reason, in the world's leading scientific and research centers, systematic scientific research is being conducted to study the specific aspects of urbanization processes, the emergence of the culture of urban planning and the development conditions in different regions of the globe.

Key words: urbanization, clean drinking water, transport, electricity, construction works, barber shop, kitchen, sewing workshop,